

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablarda INKLUYZIV TA'LIMNI JORIY ETISH MASALALARI

Kabulova Charos Turdikulovna,  
Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 127-maktab o'qituvchisi

*Annotatsiya. Maqolada jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lif tashkilotlarida inklyuziv ta'lif tashkil etiish masalalari tahlil etiladi. Inklyuziv ta'lifni tushunchasining falsafiy va lug'aviy ma'nolari, umumiyl o'rta ta'lif tizimida ta'lif oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro turlari, guruhlari hamda inklyuziv ta'lifning samarali tomonlari yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lif, moslashtirish, ijtimoiy dezadaptatsiya, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar, korreksiya.*

## ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Кабулова Чарос Турдикуловна,  
Учительница школы 127 Яккасаройского района города Ташкента

*Аннотация. В статье анализируются вопросы организации инклюзивного образования в образовательных организациях для детей с физическими, умственными, сенсорными или психическими отклонениями. Освещены философские и словарные значения понятия инклюзивное образование, особенности и взаимные типы, и группы учащихся в системе общего среднего образования, эффективные аспекты инклюзивного образования.*

*Ключевые слова: инклюзивное образование, адаптировать, социальная дезадаптация, дети с нарушениями речи, коррекция.*

## ISSUES OF INTRODUCING INCLUSIVE EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS

Kabulova Charos Turdikulovna,  
Teacher of school 127 of the Yakkasaroy district of Tashkent

*Abstract. The article analyzes the issues of organizing inclusive education in educational organizations for children with physical, mental, sensory or mental disabilities. The article highlights the philosophical and dictionary meanings of the concept of inclusive education, the features and mutual types and groups of students in the general secondary education system, and effective aspects of inclusive education.*

*Keywords: inclusive education, adapt, social maladaptation, children with speech disorders, correction.*

Dunyodagi barcha mamlakatlar siyosati qatorida O'zbekiston Respublikasi siyosati ham insonparvarlilik tamoyillarga tayanadi. Insonparvarlik - jamiyat taraqiyoti va jamiyat a'zolariga yaratilgan imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar, ularning erkin, farovon yashashi uchun kerak bo'lgan barcha soxadagi qo'llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. Jamiyat taraqiyoti va jamiyat a'zolariga yaratilgan imkoniyatlar ichida ta'lif – tarbiyaning o'mi beqiyos ekanligi e'tirof etiladi. Ta'lif tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, sohaning huquqiy assoslari takomillashtirilishini talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 23 sentabr kuni qabul

qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning imzolanishi va ushbu qonunda “Inkiyuziv ta’lim” tushunchasining kiritilishi [1], insonparvarlik tamoyilining amaliy ko’rinishi sifatida ko’rishimiz mumkin. Jumladan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning 20-moddasida inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo’lgan teng imkoniyatlarni ta’minalashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deb e’tirof etildi [2].

Inkyuziv ta’limni joriy etishning ta’lim olish jarayonini sifatli tashkil etish, isloh qilib borish, har bir davlat va jamiyat oldidagi dolzarb muammo hisoblanadi. Demak inklyuziv ta’lim tushunchasi terminologik jihatdan ham alohida ehtiyojga ega bolalarni ta’lim muassasalariga jalb etish qo’shish degan ma’noni anglatadi.

Inklyuziya ikki yuz yillik tarixga ega bo’lib, pedagogikaning chuqur tarixiy ildiziga borib taqaladi

Rus tadqiqotchisi O.Korshunova o’z tadqiqot ishlarida inklyuziv ta’lim tushunchasini keng yani falsafiy va tor yoki lug’aviy mazmunga ajratib quydagicha yoritib beradi [5].

Inklyuziv ta’lim tushunchasiga keng mazmunda tarif berilganda:

- ta’limga yanada moslashuvchani yondashuv bo’lib, har bir ta’lim oluvchining bir-biridan farq qilishi bilan bog’liq to’siqlarni bartaraf etiladigan va ta’lim oluvchidagi potensial imkoniyatlarini o’z-o’zini anglash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratiladigan, ta’lim oluvchilar ta’lim olishi uchun foydali o’ziga xos jarayondir;

- o’quv jarayonini tashkil etishning shunday o’ziga xos shakli bo’lib, barcha bolalar jismoniy, aqliy qobiliyati, madaniy kelib chiqishi, til va irqidan qatiy nazar, ta’lim muassasalarida ta’lim oladi. Ulardagi alohida ta’lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bolalarni tengdoshlari bilan birgalikda inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim olishi, bu ta’lim muassasalarida alohida emas, balki ommaviy ta’lim- tarbiya berish jarayonidir;

– sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalarni imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda har bir ta’lim oluvchi uchun individual yondashuv usulini amalga oshirib, ta’lim oluvchilarning aqliy va shaxs hususiyatlarini inobatga olgan holda ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlanirish, ta’lim oluvchilarni ijodiy baholash va ularni birga faoliyat jarayoni.

Inklyuziv ta’lim tushunchasiga tor yoki lug’aviy mazmunda tarif berilganda:

Rus tadqiqotchisi Purgina E. inklyuziv ta’lim tushunchasini falsafiy tomonidan quydagicha tariflaydi [3]. Inklyuziv ta’lim termini “inklyuziya” fransus tilidan olingan bo’lib lotinchadan tarjima qilinganda “bog’lamoq”, “qo’shamoq” degan ma’nolarni bildiradi. Inklyuziv ta’lim terminining yana bir ma’nosи “inclusive”, “inclusion” ingliz tilidan olingan bo’lib “uyg’unlashmoq”, “uyg’unlashtirish”, “o’z ichiga qamrab olmoq”, “qamrab olish”, “inclusive” shu jumladan, “include” “xulosa qilish”, “o’z ichiga qamrab olish”, “jalb etish” ma’nolarni bildirib, jamiyatda alohida ehtiyojli shaxslarni zamonaviy ijtimoiy hayotdagи munosabatlarga jalb etilishi degan tushunchaga asoslanib ta’lim jarayonidagi o’zgartirishlar tushuniladi. Ta’lim jarayonidagi o’zgarishlar barcha uchun ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish, shu bilan birga alohida ehtiyojga ega bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatini yanada kengroq ta’minalash uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Bugungi kunda turli siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy va ijtimoiy muhit, balki o’ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlari, shu jumladan rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalar sonining tobora ortib borishi o’quvchilar o’rtasida o’zaro farq yuzaga kelishiga sabab bo’lmoqda.

Inkiyuziv ta’limning vazifasi o’quvchilar o’rtasidagi farqlarning, madaniy va ijtimoiy

xilma-xilligiga muammo sifatida emas, balki har bir bolani eshitish va tushunish, uning individualligi va o'ziga xosligini namoyon etish, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati sifatida qarashdan iborat. Bu masala jahon miqyosida inkiyuziv ta'lism atamasi bilan atalib dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda [4].

Bundan kelib chiqqan holda pedagogika muhitidagi zamonaviy turfa xillik tushunchasi ta'lism jarayoni subyektlarining quyidagi mezonlarga asoslangan xususiyatlarini nazarda tutadi: salomatligining holati, psixofizik xususiyatlari; o'quvchi va uning oilasining ijtimoiy holati; intellektual va ijodiy qobiliyatlar; etnik guruhi va ona tili, milliy an'analari, madaniyati va mentaliteti; ijtimoiy-emotsional xususiyatlari; o'ziga xos madaniy qoidalar.

Ta'lism oluvchilarining turfa xilligini hisobga olgan holda zamonaviy ta'lism muassasalarining inklyuziv sohasiga yuqoridagi mezonlarga mos keluvchi quyidagi o'ziga xos guruhlar mavjud:

- nogironligi bo'lgan va yoki o'ziga xos psixofizik rivojlanishga ega bolalar;
- turli darajada kam ta'minlangan oilalarning farzandlari;
- turli sohalarda o'ziga xos qobiliyatlar bo'lgan bolalar;
- ijtimoiy-emotsional jihatdan o'ziga xos, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bolalar;
- muhojirlar va migrantlarning bolalari.

Ushbu o'ziga xos guruhlarga xos bo'lgan bolalar bilan umumiyoq o'rta ta'lism maktablarda inkluyuziv ta'limi joriy etish va o'zaro munosabatga kirishish strategiyasini tuzishda pedagoglar hisobga olishi lozim bo'lgan ba'zi xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Nogironligi bo'lgan va yoki o'ziga xos psixofizik rivojlanishga ega bolalar inklyuziv ta'limga o'ziga xos guruhi sifatida.

Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining (BJSST) ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 240 millionga yaqin, O'zbekiston Respublikasida esa 142,3 ming nafar 18 yoshgacha bo'lgan nogironligi bor bolalar mavjud. Odatta, ularga quyidagi guruhdagi bolalar kiritiladi [6]: nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar; ruhiy rivojlanishining kechikishi oqibatida maktab dasturini qiyin o'zlashtiradigan bolalar; aqliy imkoniyati cheklangan bolalar; ko'rish qobiliyatida buzilishlari bo'lgan bolalar; tayanch-harakat apparatida buzilishlari bo'lgan bolalar; eshitish qobiliyatida buzilishlari bo'lgan bolalar; bir necha yoki og'ir nuqsonlari bor bolalar.

Bolalik yoshidagi nogironlik bolaning rivojlanishida buzilishlarning yuzaga kelishi hamda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, harakatlanish, mo'ljal olish, o'z-xulq atvorini nazorat qilish, o'zlashtirish va mehnat qobiliyatining susayishiga sabab bo'ladi va natijada paydo bo'luvchi ijtimoiy dezadaptatsiya hayot faoliyatining sezilarli darajada cheklanishiga olib keladi [7]. Shuning uchun sog'liqni saqlash va ta'lim tizimidagi mutaxassislar aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan, inklyuziv ta'lim tizimiga jalg qilingan bolalar uchun kompleks chora tadbirlarni va korreksion rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishlari lozim, chunki bolalik yoshida tashkil etiladigan reabilitatsion chora tadbirlar nisbatan samaraliroq bo'ladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarining qayd etishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxs xususiyatlarining shakllanishi nafaqat nuqsonga, balki jamiyatning bolaga bo'lgan munosabati, xususan ijtimoiy muhitda nogiron shaxs haqida hosil bo'ladigan tasavvurlarga ham bog'liq bo'ladi. BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyasi bu muammoni hal qilishga yo'naltirilgan asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi tamonidan 1992 yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilindi. 2007 yil 23-noyabrdan "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonun nogiron bolalarga ishonchli tibbiy xizmat ko'rsatilishi, ta'lim berilishi, mehnat qobiliyatining tiklanishi va imkoniyati doirasida mehnat huquqi berilishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda salomatligi cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida maxsus infratuzilmalar yaratilgan, ular maxsus maktab-internatlar, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim beruvchi va reabilitatsion markazlar, maxsus kompensatsiyalovchi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maxsus turdag'i bolalar uylari, ta'lim muassasalaridagi maxsus guruhlar va sinflar optimallashtirilib, ta'limning yangi bosqichi inklyuziya bosqichiga qadam qo'yidik.

Salomatligi cheklangan bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash jihatdan eng samarali vosita bu inkyuziv maktablardir. Inklyuziv ta'lim mohiyatiga ko'ra, rivojlanishida o'ziga xosliklari bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga tahsil olishi va ayni paytda maxsus sharoitlarning (ko'cha va mакtab binosidagi to'siqsiz muhit; kerakli didaktik materiallar bilan ta'minlangan ta'lim muhiti;

oddiy va maxsus pedagogni qamrab olgan inklyuziv sinfda ishlash va hokazo) hosil qilinishi evaziga o'ziga xos ehtiyojlarning qondirilishiga qulay muhit yaratadi. Bunda har bir o'quvchi o'zining bilish imkoniyatlariga mos keluvchi dasturni o'zlashtiradi. Bunday uyg'unlik sog'lom bolalarda insoniylik tuyg'ularini shakllantirish va o'ziga xos rivojlanishga ega bolalarni erta ijtimoiylashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, ayni holatdan ko'rib turibmizki, Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlanirish Konsepsiysi.(<https://lex.uz/docs/-5044711>)

Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011

G.Shoumarov, R.Shomaxmudova, L.Muminova, X.Kalbaeva va boshqalar —O'zbekiston Respublikasida Inklyuziv Ta'lim Konsepsiysi Ijtimoiy Tashabbuslarni Qo'llab- quvvatlash Fondi, Toshkent-2009 yil.

"Maxsus va inklyuziv ta'lim an'ana, tajriba va innovatsiyalar" mavzusidagi Respublika anjumani. Toshkent-2023

Коршунова О. В. Теоретико-методологические основы инклюзии в образовании // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 8. – С. 16–20. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/56114.htm>.

Воронич Е.А. Сущность инклюзивного подхода в образовании // Периодический журнал научных трудов «Фэн-наука» - 2013. - №1 (16). - С. 17-20

Мёдова Н.А. Инклюзивное образование в схемах и таблицах. - Томск, 2012. - 24 с.